



TABIIY VA SUN'IY INTELLEKTNING EKZISTENSIAL XOSSALARI

Mustafayev Jafar Shomirzayevich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi,

Samarqand davlat pedagogika instituti

E-mail: jafar.mustafayev.84@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0007-9199-1477>

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellektning ontologik jihatlari, actual ontologik masalalar, sun'iy ongning mohiyati, tabiiy intellekt va sun'iy intellekt o'rtasidagi ontologik farqlar, sun'iy intellekt haqiqiy dunyodagi tasavvurlarni to'g'ri ifodalay olishi yoki olmasligi, uning «haqiqiyligini» yoki «mavjudligini» hamda kognitiv vazifalarni bajarishdagi imkoniyat va kamchiliklari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: ong, ontologiya, sun'iy aql, sun'iy intellekt va tabiiy intellekt, mavjudlik, «ma'lumot» va «ma'lumotlar ma'nosi», semantika, ijtimoiy, huquq, qonun, qaror qabul qilish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются онтологические аспекты искусственного интеллекта, актуальные онтологические вопросы, сущность искусственного сознания, онтологические различия между естественным и искусственным интеллектом, вопрос о том, может ли искусственный интеллект точно представлять представления реального мира, его «реальность» или «существование», а также его возможности и недостатки в выполнении когнитивных задач.

Ключевые слова: сознание, онтология, искусственный интеллект, искусственный интеллект и естественный интеллект, существование, «информация» и «значение данных», семантика, социальное право, право, принятие решений.

Abstract: This article discusses the ontological aspects of artificial intelligence, actual ontological issues, the essence of artificial consciousness, the ontological differences between natural intelligence and artificial intelligence, whether artificial intelligence can accurately represent real-world representations, its «reality» or «existence», and its capabilities and shortcomings in performing cognitive tasks.

Keywords: consciousness, ontology, artificial intelligence, artificial intelligence and natural intelligence, existence, «information» and «data meaning», semantics, social, law, law, decision-making.

Kirish

Bugungi kunda sun'iy intellektning ontologik jihatlari - bu sun'iy intellekt va uning komponentlarining ontologik (mavjudlik va mavjudlikni tushunishga oid,) borliqdagi o'rni ma'nosida) o'lchamlarini o'rganish bilan bog'liq masalalardir. Ontologiya - bu falsafaning borliq va mavjudlik haqidagi ta'limoti bo'lib, mavjudlik, borliq, mavjud bo'lishning asosiy shakllari va ularning o'zaro munosabatlarini





o'rganadi. Sun'iy intellekt va uning texnologiyalari ham, ayniqsa, ong, aql va ongli tizimlarning tabiati haqida savollarni keltirib chiqaradi.

Sun'iy intellektning ontologik jihatlari quyidagi asosiy masalalarni o'z ichiga oladi: Mavjudlik va sun'iy aql (hozirgi kunda ingliz tilidagi Artificial Intelligence and Existence)¹⁷. Sun'iy intellektning ontologik masalalaridan biri - uning "mavjudligidir". Ya'ni, sun'iy intellektning mavjudligi, o'zi qanday ishlashi, murakkab tizim sifatida inson intellekti bilan bog'liqlik jihatlari haqida so'z yuritadi. Sun'iy intellekt, albatta, biologik ongdan farq qiladi, ammo uning mavjudligi tabiiy borlig'i nimalarga bog'liqligi bilan actual ontologik masaladir. Uning «mavjudligi» nafaqat texnologik jihatdan, balki falsafiy, sinergetik va ontologik nuqtai-nazardan ham muhim tadqiqot obyekti sifatida o'rganishni talab qiladi.

Materiallar va usullar

Sun'iy intellect va sun'iy intellekt tizimlar hech qanday biologik jarayonlardan o'tmaydi, lekin ular qaror qabul qilish, o'rganish va hatto ijodiy fikrlashda insonga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Biroq, bu haqiqatdan ham sun'iy ongni yaratishmi yoki sun'iy aqlning boshqa shaklini yuzaga kelishimi? - degan muammoni kun tartibiga quyadi. Sun'iy ongning mohiyati to'g'risida falsafada turli qarashlar mavjud. Ba'zi olimlar sun'iy intellekt tizimlarining ongni to'liq qamrab olish imkoniyatini inkor qiladilar, boshqalar esa sun'iy ongni «simulyatsiya» qilishga qaratilgan yangi yondashuvlarni taklif qiladilar. Misol uchun "VAR" tizimi haqiqat va simulyatsiya o'rtasidagi juda nozik jihatlarni seza olishidir. Shuningdek, ikkilamchi yaratilgan va tabiiy intellekt o'rtasidagi farqlar esa ontologik jihatdan, sun'iy intellekt va tabiiy intellektning o'rtasidagi o'xshash va farqli atributlarni mavjudlik shaklini anglash bilan bog'liq jarayondir. Ammo, qaysi intellect aniq va soda hamda tez va mukammal idrokni amalga oshirishi asosiy shart bo'lmasligi kerak. Tabiiy intellekt - biologik tizimning (masalan, inson miyasi) aqliy faoliyatidir, u hayotiy jarayonlarga asoslanadi. Sun'iy intellekt esa, odamlarning aqliy faoliyatini kompyuter tizimlari va algoritmlar yordamida simulyatsiya qilishga qaratilgan texnologiyadir. Tabiiy intellekt va sun'iy intellekt o'rtasidagi ontologik farq esa tabiiy intellekt biologik tizimlarning aqliy faolligini ifodalaydi, sun'iy intellekt esa, insonning aqliy faoliyatini avtomatlashtirilgan tizimlarda taqlid qilishni o'z ichiga oladi. Bu sun'iy intellektning ontologik jihati - insonlar yaratgan tizimning mavjudligini, uning ontologik tabiati va imkoniyatlarini tushunishga olib keladi.

Ma'lumotlar va semantika (Data and Semantics)¹⁸ - ontologiya nafaqat mavjudlik, balki «ma'lumot» va «ma'lumotlarning ma'nosi» (semantika) bilan ham bog'liq virtual borliqning o'ziga xos shaklidir. Sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan ma'lumot olish uchun ishlatiladi, lekin bu ma'lumotlarning haqiqat va «haqiqiy ma'no» bilan qanday bog'liq ekanligi masalasi ontologik jihatdan ilmiy-falsafiy tahlil qilishni taqozo etadi. Falsafiy ontologiyada semantik tahlil va ma'lumotlarning haqiqat bilan bog'lanishi sun'iy

¹⁷ Mitchell, M. (2019). *Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans*. Farrar, Straus and Giroux.

¹⁸ Kurzweil, R. (1990). *The Age of Intelligent Machines*. MIT Press.





intellect tizimlari uchun odatda, statistik usullar yordamida ma'lumotlarni qayta ishlaydi, ammo bu ma'lumotlar real, haqiqiy dunyodagi konkret narsa va predmetlar va ularning haqiqati bilan qanday bog'lanishini tushunish ontologik jihatdan tabiiy aqlning aynan o'zini takrorlamaydi. Agar sun'iy intellekt haqiqiy dunyodagi tasavvurlarni to'g'ri ifodalay olmaydigan bo'lsa, uning «haqiqiyligini» yoki «mavjudligini» qanday ta'riflash mumkin? Bu masalani ilmiy tadqiqotda batafsil ko'rib chiqamiz. Sun'iy intellektning «intellektual» tabiati haqida so'z borganda bir qator ontologik masalalar sun'iy intellektning «intellektual» tabiati va u inson intellektiga yaqinlashishining imkoniyatlari bilan bog'liqdir. Bu yerda «intellektual» tushunchasi nafaqat intellektual faoliyatlarni takrorlash, balki aqlni, ongni va inson miyasi faoliyatini modellashtirishni o'z ichiga oladi. Texnologik intellect tizimlari «intellektual» faoliyatni amalga oshiradimi yoki ular faqat avtomatik qaror qabul qilishni amalga oshiradimi? Sun'iy intellekt, odamlarning ongini to'liq ifodalashga intilishmi yoki faqat kognitiv vazifalarni bajarishda foydalaniladimi? Bu savollar ontologik va falsafiy nuqtai-nazardan o'z yechimini topishni kutib turibdi.

Natijalar va muhokama

Sun'iy intellekt va ontologik qarorlar qabul qilishda sun'iy intellektning qaror qabul qilish tizimlari ontologik jihatdan ko'plab masalalarni yuzaga keltiradi. Masalan, bu qarorlar insoniyatning axloqiy, ijtimoiy, huquqiy va qonuniy faoliyatiga salbiy yoki ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Shulardan biri - axloqiy masalalardir. Sun'iy intellekt tizimlarining qaror qabul qilishda axloqiy masalalar va me'yorlarni hisobga olish zarurati ontologik masala sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Misol uchun, sun'iy intellekt tizimlari, inson hayoti va xavfsizligi bilan bog'liq qarorlar qabul qilganda, qanday axloqiy me'yorlarga asoslanishi jamiyat uchun paradigmal ahamiyatga egadir. Uning ijtimoiy, huquqiy va qonuniy jihatlarini ilmiy tadqiqot ishimizda batafsil ko'rib chiqishda NNT, huquq tartibot idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ta'lim-tarbiya bilan aloqador tashkilot va muassasalar bilan hamkorlikda batafsil ko'rib chiqamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sun'iy intellektning ontologik jihatlari keng va murakkab soha bo'lib, u mavjudlik, ong, qaror qabul qilish, ma'lumotlarning semantikasini tushunish va axloqiy masalalar bilan bog'liqdir. Bu masalalar sun'iy intellektni rivojlantirish va uning kelajagi haqida chuqur falsafiy va texnologik savollarni yuzaga keltiradi. Sun'iy intellektning ontologik tahlili, bizning ushbu texnologiyani qanday tushunishimiz va undan qanday foydalanishimizni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (ARA)

1. Тураев Б.О. (2010. №2). Фалсафа тарихининг қисқача баёни // Имом ал-Бухорий сабоқлари. Самарканд, Ўзбекистон.
2. Тураев Б.О. (2004. -В.136). Олам // Фалсафа: қисқача изоҳли луғат. - Шарқ, Тошкент: Ўзбекистон.
3. Тураев Б.О. (2015. -В. 352). Танланган асарлар. Наврўз нашриёти. 1-том. -Тошкент: Ўзбекистон.
4. Тураев Б.О. (2015. -В. 368). Танланган асарлар. Наврўз нашриёти., 2-том. -Тошкент: Ўзбекистон.





5. Mustafayev J.Sh. (2025-yil, 10-son (73),) Tabiiy intellekt va shaxsiyat masalasi: psixofiziologik va sinergetik tahlil//, Tamaddun nuri / The light of civilization. Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. ISSN 2181-8258 IF-9.347 DOI 10.69691, Nukus, Qaraqalpog'iston.
6. Mustafayev J.Sh. (Vol. 3., Accepted October 08, 10, (2025), Progressive-ontogenetic properties of artificial and natural intelligence// Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences, ISSN Online: 2961-0389, Website: Submitted: August 03, 2025/ Published October 16, 2025. – P.40-46. <https://www.scientaljournals.com/index.php/SJEHSS/index>,
7. Mustafayev J.Sh. (Volume 3, Issue 10, October, 2025). Artificial Intelligence And Social Life Determinism // Open Academia: Journal of Scholarly Research. ISSN (E): 2810-6377, -P. 11-16. Website: <https://academiaone.org/index.php/4>,
8. Mustafayev J.Sh. (2 (69), 2025) Shaxs aql-idroki va sun'iy intellekt dialektikasi // BERDAQ nomidagi QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETINING AXBOROTNOMASI. ISSN 2010-9075, Nukus, Qaraqalpog'iston.
9. Mustafayev J.Sh. (ISSN (E): 3067-8153 Volume 01, Issue 02, May, 2025) International experiences of cross-sectoral human resource management and informal employment in the conditions of Uzbekistan // Modern American Journal of Social Sciences and Humanities, Website: www.usajournals.org
10. Mustafayev J.Sh. (2025 йил 12 март, -Б. 273-278) Axborotlashgan jamiyatda davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy fazilatlarining namoyon bo'lishi // «Инсон, тафаккур, социум ва коинот: тараққиёти, муаммолари ва истиқболи» мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман мақолалари тўплами. Самарқанд, Ўзбекистон,
11. Mustafayev J.Sh. (2025 йил 12 март. -Б. 273-278). Yoshlar axloqiy inqirozini oldini olishda axborot xavfsizligini shakllantirish // «Инсон, тафаккур, социум ва коинот: тараққиёти, муаммолари ва истиқболи» мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман мақолалари тўплами. Самарқанд, Ўзбекистон,
12. Mustafayev J.Sh. (January 17, 2025/ Accepted March 24, 2025/ Published March 31, 2025 -P. 82-87). Artificial intelligence and human thinking // Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences, This work is licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License. Submitted: ISSN Online: 2961-0389 Website: <https://scientaljournals.com/index.php/SJEHSS/index>
13. Mustafayev J.Sh. (3(4), 94–98.) HUMAN: Philosophy of natural and artificial intelligence // *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, Retrieved from <https://webofjournals.com/index.php/9/article/view/3941>.
14. Mustafayev J.Sh. (Volume 3, Issue 4, April, 2025) Genesis, evolution and significance of artificial intelligence in social life // Western European Journal of Historical Events and Social Science <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/4>





15. Хайдаров, М. (2020 йил). *Синергетика ва фалсафа*. – Fan нашриёти. Тошкент: Ўзбекистон.
16. Karimov, A. (1(3), 22–34, 2023). "Sinergetik yondashuv va murakkab tizimlarni boshqarishning falsafiy asoslari." *Falsafa va huquq*, Тошкент: Ўзбекистон.
17. Kurzweil, R. (1990). *The Age of Intelligent Machines*. MIT Press.
18. Mitchell, M. (2019). *Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans*. Farrar, Straus and Giroux.

